

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI, TILLAR KAFEDRASI**



**“PSIXOLOGIYA”
FANINI O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 900000 – Sog‘liqni saqlash va
ijtimoiy ta’minot
Ta’lim sohasi: 910000 - Sog‘liqni saqlash
Ta’lim yo‘nalishlari: 60910300 - Pediatriya ishi

Andijon 2025 yil

Fan/modul kodi PS1304	O'quv yili 2025-2026	Semestr 4	Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/Rus/Ingliz		Xaftadagi dars soatlari 3-soat	
1	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Psixologiya	60	60	120
2	<p>I. Fanning mazmuni.</p> <p><i>Fanning o'qitishdan maqsad</i> - tibbiyot yo'nalishi talabalarida yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirish, odob-ahloq, tarbiya, hayotiy va kasbiy faoliyatlari uchun koping – strategiyalarni rivojlantirish, iqtisodiyotning globallashuvi va yanada mobillashuvi, kommunikatsiyalarning tez rivojlanishi sharoitida tolerantlik xususiyatlarini shakllantirish, mustaqil fikrlash va shaxsiy xatti-harakatlari oqibatlarini oldindan sezish, o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholash, to'g'ri maqsad qo'yish va unga erishish bo'yicha psixologik bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir.</p> <p>Fanning vazifalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - talabalarga kasbiy fanlarni o'zlashtirishi hamda keyinchalik kasbiy faoliyati uchun asos bo'ladigan shaxs va uning faoliyati; - individual xususiyatlari; - bilish jarayonlari; - emotsional – irodaviy boshqaruv; - turli qiyinchiliklarni yengib o'tishga qaratilgan tolerantlik; - kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish; - ta'sirchan psixoprofilaktik, psixologik usul va vositalarini o'rgatish. <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. Psixologiya fani predmeti, maqsadi va vazifalari. Tibbiyotda psixologik bilimlarning o'rni va ahamiyati</p> <p>Psixologiya fanlarining tibbiyotdagi o'rni. Psixologiyaning predmeti, maqsadi va vazifalari hamda prinsiplari. Psixologiyaning boshqa fan sohalari va ilmiy tadqiqot metodlari. Psixologiya fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi. Psixologiya fanining shakllanish tarixi va rivojlanish bosqichlari. Psixika va ong muammolari. Onglilik va ongsizlik tushunchalari.</p> <p>2-mavzu. Psixologiyada shaxs tushunchasi.</p> <p>Psixologiyada shaxs muammosi. Shaxs va uning shakllanishi va</p>			

rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar. Biogenetik, sotsiogenetik, psixogenetik konsepsiyalar. Shaxs faoliyati, faolligi, ehtiyoji, motivatsiyasi. Shaxsning individual- psixologik xususiyatlari haqida tushuncha. Temperament haqida tushuncha va uning turlari. Xarakter va uning xususiyatlari. Xarakter aktsentuatsiyasi. Qobiliyat, layoqat, intellekt, talant.

3-mavzu. Shaxsning emotsional-irodaviy holatlari

Shaxsiy salomatlik psixologiyasi. His-tuyg'ular. His-tuyg'ularning ifodalanishi. His- tuyg'ularning asosiy sifatleri. Emotsional holatlar: stress va uning bosqichlari, bartaraf etish yo'llari; affekt, kayfiyat, depressiya, frustratsiya, ruhlanish, ehtiros. Yuksak his-tuyg'ular. His-tuyg'ular sohasidagi individual farqlar. His-tuyg'ular va inson salomatligi. Iroda. Shaxsning irodaviy sifatleri. Irodaviy sifatleri tarbiyalash.

4-mavzu. Faoliyat. Kasbiy faoliyatning psixologik xususiyatlari

Faoliyatning tarkibiy qismlari va turlari. Kasbiy faoliyatning psixodiagnostikasi. Kasbga o'qitishning psixologik asoslari. Faoliyatni o'zlashtirish va malaka hosil qilish. Motiv va motivatsiya tushunchalarining mazmuni.

5-mavzu. Bilish jarayonlari

Bilish jarayonlari haqida tushuncha. Diqqat va uning fiziologik asoslari. Diqqatning turlari. Diqqatning asosiy xususiyatlari. Diqqatsizlik va uning korreksiyasi. Diqqat yetishmasligi sindromli giperaktiv bolalarning maktabga tayyorgarligining psixologik xususiyatlari. Sezgi va uning turlarining psixologik tavsifi, o'ziga xos xususiyatlari. Sezgi qonuniyatlari. Idrok haqida tushuncha. Idrokning fiziologik asoslari. Idrok turlari. Idrokning asosiy sifatleri. Idrokning individual xususiyatlari. Idrokning asosiy xususiyatlari uning predmetliliigi, yaxlitligi, strukturaliligi, doimiyliigi (konstantliigi) va anglashilganliigi. Idrokning yangi qirralari. Xotiraning umumiy xarakteristikasi va fiziologik asoslari. Tafakkur va tafakkur jarayonlari. Tafakkurning fiziologik asoslari. Nutq va uning fiziologik asoslari, turlari.

6-mavzu. Muloqot va shaxslararo munosabatlar psixologiyasi. Guruhlar psixologiyasi

Muloqot va munosabat to'g'risida tushuncha. Muloqot jixatlari (kommunikativ, interaktiv, perseptiv) va ta'sir vositalari (verbal, paraekstralingvistik, noverbal). Proksemika. Vizual kontakt. Muloqotning perseptiv, interaktiv, kommunikativ tomonlari. Jamoa va guruh tushunchalari. Kichik guruhlar klassifikatsiyasi. Guruhdagi o'zaro ta'sir va psixologik muhit. Liderlik. Liderlik usullari va nazariyalari. Superlider va uning shakllanish bosqichlari.

II.II. Amaliy mashg'ulotlar.

Fan bo'yicha mashg'ulotlar nazariy va amaliy qismi o'zaro bog'liq holda quyidagi mavzular bo'yicha o'tkaziladi.

1.	Psixologiya fanining maqsad va vazifalari. Psixologiya fanining tarixi.Psixologiyaning o'rganish metodlari. Psixologiya fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi va tarmoqlari.
2.	Psixikaning nerv-fiziologik asoslari. Insonlar va hayvonlar psixikasining rivojlanishi.
3.	Psixologiya fanining tibbiyotda tutgan o'rni va ahamiyati. Patopsixologiya. Shifokor faoliyatida inklyuziv ta'limning o'rni.
4.	Ong va ong osti kontsepsiyalari. Ongning xossalari.
5.	Psixologiyada "individ", "shaxs", "indivduallik" tushunchalari. Temperament. Xarakter. Qobiliyat.
6.	Yosh davrlari psixologiyasi va ularning yoshga xos xususiyatlari.
7.	Shaxsiy refleksiya natijasi sifatida shifokor kasbining shakllanish komponentlari. Shifokor shaxsiga ta'sir etuvchi ijtimoiy stereotiplar.
8.	Shaxsiy salomatlik psixologiyasi. Shaxsning emotsional-irodaviy xususiyatlari va hissiy intellekt.
9.	Faoliyat. Faoliyat strukturasi,turlari. Ehtiyoj va uning turlari. Motiv va motivatsiya tushunchalarining mazmuni.
10.	Shaxsning psixik bilish jarayonlari: Diqqat va uning xususiyatlari, turlari.
11.	Sezgi. Sezgilarning nerv-fiziologik asoslari. Sezgilar tasnifi va turlari. Idrok haqida tushuncha, idrokning asosiy xossalari va turlari.
12.	Xotira va xayolning nerv fizilogik asoslari, turlari, jarayonlari.
13.	Tafakkur operatsiyalari, turlari, jarayonlari. Nutqning anatomik fiziologik asoslari, nutqning o'sishi va turlari. ¹
14.	Muloqot va munosabat haqida tushuncha. Muloqotning perseptiv,interaktiv,kommunikativ tomonlari. ²
15.	Jamoa va guruh tushunchasi. Guruh ichidagi munosabatlarning tasnifi, shaxsning guruhdagi o'rni, rahbarlik va liderlik.

¹Mazkur mavzu xalqaro tan olingan reytinglarda Compyuter Science and information systems sohasi bo'yicha 300 talik ro'yxatga kiruvchi University of Qeenslend https://www.qcaa.qld.edu.au/downloads/senior-qce/syllabuses/snr_psychology_25_syll.pdf (QS-40, THE-77, ARWU- 63) ta'lim dasturi asosida tayyorlandi. '

² <https://farabi.university/>

Jami

Amaliy mashg'ulotlar multimediya qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- Amaliy mashg'ulotlarning maqsadini aniq belgilab olish;
- O'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
- Talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- Talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash va h.k.

II.III. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

1	Tibbiyotda psixologik va pedagogik bilimlarning o'rni va ahamiyati.
2	Shaxsiy salomatlikni ta'minlovchi zarur psixologik omillar. Psixologik salomatlik mezonlari.
3	Tibbiy muloqotda nutqning psixologik asoslari. Nutq bilan bog'liq kasalliklar.
4	Tibbiyot xodimlarida emotsional holatlarning o'ziga xosligi: stress va uning bosqichlari, bartaraf etish yo'llari.
5	Tibbiyot talabalari amaliyot jarayonida qo'llaydigan asosiy psixologik metodlari.
6	Abu Ali Ibn Sinoning "Tib qonunlari" kitobini o'rganish, sharhlash
7	Boshqaruv psixologiyasi. Ta'lim oluvchilarga psixologik ta'sir ko'rsatish yo'llari.
8	Internet va ijtimoiy tarmoqlarning talabalarining psixik salomatligiga ta'siri
9	Tibbiyot faoliyatida emotsional intellektning ahamiyati va uni rivojlantirish yo'llari.
10	Tibbiyot talabalarining shifokor shaxsiga aylanish mexanizmlarini aniqlang va tasvirlang.
11	Raqamli texnologiyalarning diqqat va xotira jarayonlariga ta'siri.
12	Umumkasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish asosida shifokorlarning stressga chidamliligini shakllantirish.
13	Shifokorning kasbiy faoliyatida konfliktlarni boshqarish ko'nikmalari.
14	Tibbiy muassasalarda jamoaviy muhit va ijtimoiy psixologik omillar.
15	Tibbiy xizmatlarda sun'iy intellekt va uning psixologik aspektlari

	<p>Psixologiya fani bo'yicha tavsiya etilayotgan mustaqil ishlar fani tizimida turli xil shaklda amalga oshiriladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Psixologiya fani bo'yicha tavsiya etilayotgan mustaqil ishlar fan tizimida turli xil keys; - taqdimot, referativ doklad; - organayzerlar; - vaziyatli masala va krossvordlar shaklida amalga oshiriladi.
<p>3</p>	<p>III. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalari) Talaba bilishi kerak.</p> <ul style="list-style-type: none"> - psixologiya fanining ilmiy-amaliy, metodologik asoslari; - shaxs rivojlanishining umumiy qonuniyatlari; - shaxsning bilish jarayonlari, individual-psixologik xususiyatlari, emotsional-irodaviy holatlari; - muloqot va guruhlar psixologiyasi; - tarbiya jarayonining mazmun va mohiyati, zamonaviy ta'lim texnologiyalari asoslari haqida tasavvurga ega bo'lishi; - psixologiya fanining maqsad-vazifalari, obykti, predmeti, asosiy tushuncha va terminlari, ilmiy-tadqiqot metodlari, tarmoqlari, fanlar tizimida tutgan o'rni, tibbiyotdagi ahamiyati; - shaxs shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning roli; shaxs faoliyati va uning individual xususiyatlari, emotsional-irodaviy holatlari va boshqaruvi, bilish jarayonlarini rivojlantirish usullari; - muloqot, kichik guruhlarning psixologik qonuniyatlari va ularning shaxs ta'lim-tarbiyasiga ta'siri; - rivojlanishda individual sifatlarni hisobga olish xususiyatlari; tarbiyaviy ta'sir etish usullari va vositalari, tarbiya turlari, oilaviy tarbiya asoslari; - voqea-hodisalarni psixologik-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilish; - o'zini – o'zi anglash, o'z kasbiy faoliyati motivatsiyasi, irodaviy boshqaruv sifatlarini rivojlantirish usullaridan foydalanish; - individual psixologik xususiyatlarni o'rganish va o'zini–o'zi tarbiyalash mexanizmlarini egallash; - bilish jarayonlarini rivojlantirish, kreativ va tanqidiy fikrlash hamda o'quv materiallarini o'zlashtirish jarayonini optimal usullarini egallash; turli emotsional holatlar farqini aniqlash, ularni boshqarish, o'z xatti – harakatlari va hissiy kechinmalarni boshqarish; - guruh va jamoda samarali faoliyat olib borish, adekvat asoslangan qaror qabul qilish, o'zida liderlik fazilatlarini rivojlantirish; - shaxslararo munosabatlarda muloqotning samarali ta'sir ko'rsatish usullari va vositalarini qo'llash;
<p>4</p>	<p>IV. Ta'lim texnologiyalari va metodlari.</p> <ul style="list-style-type: none"> - tezkor savol-javoblar; - kichik guruhlarda ishlash; - blits-so'rov - jamoa bo'lib ishlash;

- taqdimotlar tayyorlash;
- testlar tuzish va yechish.

5

V. Kreditlarni olish uchun talablar.

Psixologiya fani bo'yicha baholash mezonlari haqidagi ma'lumot fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Talabalarning fan bo'yicha o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

- joriy nazorat (JN);
- Sinov – 0 kredit (o'tilishi majburiy)

Fan bo'yicha talabanning semestr (o'quv yili) davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi va baholash turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi.

No	Baxolash turi	Maksimal ball	Kredit soni
1.	Auditoriyadagi o'quv mashg'ulotlarni baxolash (JN)	100	4
2	Sinov	100	0
JAMI		100	4

JORIY NAZORAT (JN) JNda talabanning fan mavzulari bo'yicha bilim, amaliy ko'nikma va kompetensiyalarni egallash darajasini aniqlash va baholab borish ko'zda tutiladi. Psixologiya fani bo'yicha JN og'zaki, o'rgatuvchi-nazorat testlari, tarqatma materiallari bilan ishlash, vaziyatli masalalar, mulyaj va fantomlarda ishlash ma'lumotlarini o'rganish, uyga berilgan vazifalarni tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkaziladi.

Baholashda talabanning bilim darajasi, amaliy mashg'ulot materiallarini o'zlashtirishi, nazariy material muhokamasida va ta'limning interaktiv usullarida ishtirokining faollik darajasi, shuningdek, amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasi, kompetensiyalarni egallash (ya'ni nazariy, analitik va amaliy yondoshuvlar) hisobga olinadi.

Joriy nazorat uchun 4 kredit ajratiladi: Talaba xar bir bo'limdan belgilangan kreditlarni to'plagandan keyingina yakuniy nazoratga kiritiladi.

Fan bo'yicha talaba reytingi quyidagicha aniqlanadi:

Ball	ECTS Baho	ECTS ning ta'rifi		Baho	Ta'rifi
86-100	A	"a'lo" - a'lo natija, minimal hatoliklar bilan	fan dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi; terminologiyadan (shu	5	a'lo

			<p>jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;</p> <p>muammoli savollarni aniqlashi, o'z qarashlarini ilmiy-amaliy tilda asoslab bera olishi;</p> <p>fanning tayanch tushunchalarini bilishi va uni qisqa vaqt ichida ilmiy va amaliy masalalarni yechishda samarali qo'llay olishi;</p> <p>nostandart vaziyatlarda muammolarni mustaqil va ijodiy hal qila olish qobiliyatini ko'rsata olishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda to'liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to'liq egallashi;</p> <p>amaliy masalalarni qisqa, asoslangan va ratsional ravishda hal etishi;</p> <p>fan dasturida tavsiya etilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni to'liq va chuqur o'zlashtirishi;</p> <p>fan bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglash, ularga tanqidiy baho berish va boshqa fanlar ilmiy yutuqlarini qo'llay olishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda yuqori madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>		
81-85	B	"juda yaxshi" - o'rtadan yuqori	fan dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi;	4	yaxshi

			<p>natija, ayrim hatoliklar bilan</p>	<p>terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;</p> <p>o'z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi;</p> <p>fanning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo'yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi;</p> <p>standard vaziyatlarda muammolarni o'quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda to'liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to'liq egallashi;</p> <p>amaliy mashg'ulotlarda normativ- huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to'g'ri (lekin doim ham ratsional emas) qo'llay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli darajada rasmiylashtira olmaganligi;</p> <p>fan dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o'zlashtirishi;</p> <p>o'rganilayotgan fan bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda juda yaxshi</p>		
--	--	--	---------------------------------------	--	--	--

			madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;		
71-80	C	"yaxshi" - o'rtacha natija, sezilarli hatoliklar bilan	<p>fan dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi, ammo bir oz kamchiliklar bilan;</p> <p>terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;</p> <p>o'z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi;</p> <p>fanning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo'yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi;</p> <p>standart vaziyatlarda muammolarni o'quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni egallashi, ammo bir oz kamchiliklar bilan;</p> <p>amaliy mashg'ulotlarda normativ- huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to'g'ri (lekin doim ham ratsional emas) qo'llay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli darajada rasmiylashtira olmaganligi;</p> <p>fan dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o'zlashtirishi;</p> <p>o'rganilayotgan fan bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga</p>		

			tanqidiy baho berishi; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda yaxshi darajaga ega bo'lishi lozim;		
60-70	D	"qoni-qarli" - sust natija, qo'pol kamchiliklar bilan	<p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida yetarli bilim hajmiga ega bo'lishi;</p> <p>terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to'g'ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim xatolarga yo'l qo'yishi;</p> <p>javob berishga yoki ayrim maxsus ko'nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda, fan bo'yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni (sifati va belgilangan soni jihatdan) mustaqil ammo hatoliklar bilan to'liq bajara olishi;</p> <p>kompetensiyalarni mustaqil, ammo hatoliklar bilan egallashi;</p> <p>modulining umumiy tushunchalari bo'yicha qisman bilimga ega bo'lishi va uni standart (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo'llay olishi;</p> <p>pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi;</p> <p>o'qilayotgan fan bo'yicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda yetarli madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>	3	Qoni qarli
55-59	E	"o'rta" - minimal natijaga teng	davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida qoniqarli bilim hajmiga ega bo'lishi;		

				<p>terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to'g'ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim qo'pol xatolarga yo'l qo'yishi;</p> <p>javob berishga yoki ayrim maxsus ko'nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda va hatolarga yo'l qo'yganda, fan bo'yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni (sifati va belgilangan soni jihatdan) mustaqil emas va hatoliklar bilan to'liq bajara olishi;</p> <p>kompetensiyalarni mustaqil emas va hatoliklar bilan egallashi;</p> <p>modulining umumiy tushunchalari bo'yicha qisman bilimga ega bo'lishi va uni standard (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo'llay olishi;</p> <p>pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi;</p> <p>o'qilayotgan fan bo'yicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda yetarli madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>		
31-54	FX	"qoniqarsiz" - minimal darajadagi bilim-larni olish uchun qo'shimcha mustaqil o'zlashtirishi zarur	<p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa;</p> <p>ilmiy terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo'lsa;</p> <p>amaliy ko'nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog</p>	2	Qoni qarsiz	

			xodim tavsiyalari yordamida ham to'g'rilay olmasa.		
0-30	F	"mutloq qoniqarsiz" to'liq qayta o'zlashtirishi lozim	davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa; terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy va qo'pol mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa yoki umuman javob bermasa; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo'lsa yoki umuman bajarmasa; amaliy ko'nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'g'rilay olmasa.		

SINOV

JNga ajratilgan kreditlarni to'liq to'plagan talaba sinovga kiritiladi. Sinovda talabaning bilim, ko'nikma va malakalari fanning umumiy mazmuni doirasida baholanadi. Sinov fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlari tugaganidan so'ng kafedrada test shaklida o'tkaziladi. Sinovda 55 saralash ballini ololmagan talaba sinovdan o'tmagan va modulni o'zlashtirmagan deb hisoblanadi JNda to'liq kreditni yig'gan bo'lsa ham.

Ta'lim muassasasi rektorining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida sinovni o'tkazish jarayoni davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, sinov natijalari bekor qilinadi va sinov qayta o'tkaziladi.

Kasalligi sababli sinovdan o'tolmagan talabalarga fakultet dekani farmoyishi asosida, o'qishni boshlaganidan so'ng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladi.

Semestr yakunida sinovdan o'tolmagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin qayta o'zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. SHu muddat davomida fanni o'zlashtira olmagan talaba fakultet dekani tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi.

Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi

natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kambo'lmagan tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o'quv bo'limi hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

6

Asosiy adabiyotlar:

1. Umarov B.M., Shoyimova Sh.S., Ro'ziyeva D.I. Pedagogika.Psixologiya, Darslik. Toshkent. 2019 y.
2. B. Umarov va boshq. Psixologiya. Darslik. 2014 y.
3. X.I.Ibragimov, U.A. Yo'ldoshev, X. Bobomirzaev. Pedagogik psixologiya. O'quv qo'llanma. 2009 y.
4. N. X. Avliyakov, Pedagogicheskaya texnologiya. Uchebnoe posobiya. 2009 g.
5. Shamsheva A.K., Melibaeva R.N., Usmanova X.E., Xaydarov I.O. Umumiy psixologiya, O'quv qo'llanma. Toshkent, 2018 y. (elektron).
6. SHoyimova SH.S. SHaxs psixologiyasi, O'quv qo'llanma. Toshkent. 2017 y. (elektron).
7. Ostrenkova M. Ye. Psixologiya, Moskva. GEOTAR-Media. 2015 g. (elektron).
8. Rean A.A., Bordovskaya N.V., Rozum S.I. Psixologiya i pedagogika, Uchebnik. Piter. 2010 g. (elektron).

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Abdullaeva SH.A., Axatova D.A., Sobirov B.B., Sayitov S.S. Pedagogika, O'quv qo'llanma. Toshkent. 2004 y.
2. Ziyamuhamedov B. Pedagogika, O'quv qo'llanma. Toshkent. 2014 y.
3. Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya, Darslik. Toshkent. 2008 y.
4. Iskandarova SH.T., SHoyimova SH.S., Mirzaeva N.A. Psixologiya, Darslik. T.2010 y.
5. Karimova V.M. Psixologiya, O'quv qo'llanma. T.: SHarq. 2002 y.
6. Kudryavaya N.V., Ye.M.Ukolova, Smirnova N.B., Voloshina Ye.A., Zorin K.V. (Pod obshchey redaktsiyey: N.V. Kudryavaya) Pedagogika v meditsine, Uchebnoe posobie. Moskva. 2012 g.
7. Melibaeva R.N. "Bilish jarayonlari" modulini o'qitishda innovatsion

	<p>ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, O'quv-uslubiy qo'llanma – Toshkent, 2020 y.</p> <p>8. Melibaeva R.N. Talabalar tafakkurini amaliy o'rganish va rivojlantirish usullari, O'quv-uslubiy qo'llanma – Toshkent, 2020 y.</p> <p>9. Nemov R.S. Psixologiya, M.: Vlados, Kniga 1-2 tom. 2003 g.</p> <p>10. Novgorodtseva I.V. Pedagogika v meditsine. Praktikum, Uchebnoe posobie. Izdatelstvo «FLINTA». 2017 g.</p> <p>11. Podlasiy I.P. Pedagogika, Kniga v 2 tomax. Moskva. Vlados. 1999 g.</p> <p>12. Umarov B.M. Psixologiya, Nopedagogik oliy ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik. Toshkent. 2011 y.</p> <p>13. Urazova M.B, Xashimova M.K.Suyunov O.J. Pedagogika, Uchebnoe posobie. Toshkent. 2009 y.</p> <p>14. Shoyimova Sh.S. Muloqot psixologiyasi, O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2017 y.</p> <p>Internet saytlari:</p> <p>1. www.edu.uz – OO'MTV rasmiy sayti</p> <p>2. www.ziyonet.uz – Ta'limiy portal</p> <p>3. www.pedagog.uz – TDPU rasmiy sayti</p> <p>4. www.natlib.uz – A.Navoiy nomli O'zbekiston Milliy kutubxonasi sayti.</p> <p>5. www.istedod.uz – O'zR Prezidenti huzuridagi “Iste'dod” jamg'armasi portali.</p> <p>6. www.thelearningweb.net – Ta'lim tarmog'i.</p> <p>7. www.inetlibrary.com. – Internet kutubxona</p> <p>8. www.glef.org. - Djordj Lukasning Ta'limning fondi.</p> <p>9. www.newhorizontsofedu.org. - Ta'limning yangi ufqlari.</p> <p>10. www.teacherswithoutborders.org. - Chegarasiz o'qituvchilar.</p> <p>11. www.thelearningweb.net. - Ta'lim tarmog'i.</p>
7	Andijon davlat tibbiyot instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.
8	<p>Fan/modul uchun mas'ullar: N.D.Axmedova, O`.Arziqulov, L.Shabdullayeva, M.Jalolova, M.Toshmatova, M.Tojilova, O.Tajibayeva</p>